

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI



MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ta’lim-tarbiya tizimini hozirgi davr talabi darajasiga ko‘tarish, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga, ya’ni pirovard natijada malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liq.

Chunki jamiyat taraqqiyotining asosini uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanganligi bilan bir qatorda shu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning intellektual va ma’naviy salohiyati ham belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda har bir davlatning istiqboli, uning ta’lim-tarbiya tizimi qay darajada ekanligi bilan belgilanadi. Ta’lim-tarbiyani eski, sho‘rolar davridan qolgan mafkuraviy qarashlardan holi etish, uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini tashkil etish muammolarini hal etish, amaldagi ta’lim-tarbiya tizimini yuksak taraqqiy etgan davlatlar darajasiga ko‘tarish pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lami va sifatiga bog‘liq.

Mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya, uning muammolari va yechimlariga bag'ishlangan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari, monografiya, o'quv adabiyotlar, metodik qo'llanmalar va maqolalar e'lon qilindi. Bu ishlarda pedagogik fikrlarning ilmiy-metodologik asosi, metodlari, maqsad va vazifalari, yangi yo'nalishlari, ta'lim va tarbiya mazmuni, shakl va metodlari hamda shu kabi muammolarga milliy istiqlol g'oyalari va milliy mafkura asosida yangicha yondashishga harakat qilindi.

Zotan, ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, moziyda ham eng muhim masala inson, uni barkamol shaxs etib tarbiyalash bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi manbalardan boshlab, keyinchalik paydo bo'lgan ta'limiy-axloqiy asarlarda ta'lim-tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etilganki, uning asosida barkamol shaxsni ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosi markaziy muammo bo'lgan.

Mustaqillik yillarida milliy pedagogika nazariyasi va tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar ham yaratilgan. Pedagogika tarixining ta'lim-tarbiya taraqqiyotida tutgan o'рни mustaqillikning dastlabki yillaridayoq pedagog olimlar diqqatini tortdi. Pedagogikaga doir darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalari zamonaviy pedagogik kadrlarni kasbiy shakllantiruvchi ta'lim mazmunidir.



1

“Mustaqillik
ma’naviyati va tarbiya
asoslari” (Safo Ochil)



3

“O‘zbek pedagogikasi
antologiyasi” (Hoshimov va
boshqalar)



2

“Pedagogika” (R.Mavlonova
va boshqalar)



4

“O‘zbek pedagogikasi tarixi”
(A.Zunnunov va boshqalar)
“Barkamol avlod orzusi”
(Sh. Qurbonov va boshqalar)

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi, xalqimizning kelajakda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lidagi orzu-umidlarini, milliy istiqlol mafkurasining asl mohiyatini yosh avlod ongi va qalbiga singdirish jarayoni kechayotgan bir davrda ta’lim-tarbiyaga doir nazariy va amaliy g‘oyalar muhim ahamiyat kasb etadi va bular asosida ijtimoiy ongni shakllantirish shart-sharoitlari, mexanizmini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turli asosiy vazifalardan biridir. Shuning uchun ilmiy tadqiqotlarda izlanishlarda quyidagi yo‘nalishlarni inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir:

01

pedagogik fikrlar taraqqiyotning tarixiy ildizlarini tahlil etish va ularni ta’lim-tarbiya iste’moliga kiritish yoilari, shakl va metodlarni tadqiq etish;

rivojlangan xorijiy davlatlar ta’lim tajribalari, ilg‘or texnologiyalarni Respublikamizda ta’lim jarayonidagi yangiliklar bilan qiyosiy tahlili;

02

03

hozirgi davr pedagogik fikrlar taraqqiyoti, innovatsion yo‘nalishlar va ularning istiqboli va h.k.

jadidlar ta’limotini qayta ko‘rib chiqish, ularning pedagogikaga oid qarashlarini chuqur tahlil etish.

04

Zamonaviy ta'lim taraqqiyotida paydo bo'layotgan "Innovatsion yondoshuv", "Innovatsion faoliyat", "Innovatsion pedagogika" tarzidagi tushunchalar yuqoridagi ehtiyojlar asosidan kelib chiqqan bo'lib, ularning pirovard maqsadi ta'lim sohasida o'quv-tarbiya jarayoni natijasini kafolatlaydigan o'zgarish, yangilanishlar kiritishdan iborat. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda XX asming 60-yillarida paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N.Gonbolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlar innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalami keng yoyish nuqtayi nazaridan yoritilgan.

V.A.Lazerev, A.I.Prigojin, V.A.Slastenin, O.G.Xomeriki, M.M.Potashnik, J.Yo'ldoshyev, N.Azizxo'jayeva, K.Zaripov, Sh.Qurbonov, E.Seyt, Xalilov va boshqa olimlar amaliyotda ta'lim rivojlanishini, unga oldin mavjud bo'lmagan komponentlarni kiritish, yoki ularni takomillashgan turlariga almashtirishni pedagogik yangilanish tarzida tushunadi. Ular yangilanishni yangilik tarzda tushunish lozim deydi. Yangilanishni nisbiy tushuncha tarzida ifodalab, o'zgarishlarni quyidagi sifatlar bilan xarakterlanishini ifodalaydi: o'zgarish predmeti, ya'ni ta'lim tizimida qayta o'zgartiriladigan predmet; o'zgarishlar teranligi (yangilik kiritish natijasidagi o'zgarish darajasi); o'zgarishlar masshtabi; yangilanish manbalari (hajmi); ishlab chiqilganlik darajasi.

QORI NIYOZIY

O‘zbekistonda XX asrning asrning ikkinchi yarmida faoliyat yuritgan ilmiy maktablar ichida Qori-Niyoziyning olib borgan ilmiy izlanishlari ham e’tiborga molik jihatlardan biridir.

Olim o‘z ijodiy faoliyati davomida 1917-yil inqilobidan keyin yangi turdagi maktablar ochishda faol ishtirok etdi va bu jarayonda bir qator yutuqlarga erishdi. Qori-Niyoziy maktablar uchun qo‘llanma, metodik tavsiyalar yozdi. Uning qalamiga mansub oliy matematikaga doir “Matematika analizining asosiy kursi” nomida darsligi va “Ulug‘bek va uning ilmiy merosi”, “Sovet O‘zbekistoni tarixidan ocherklar”, “Bosib o‘tilgan yo‘l haqida mulohazalar”, “Hayot maktabi” nomli bir qator kitoblari nashr etilib keng jamoatchilik e’tiboriga havola etildi. Bu asarlar o‘zbek ilm faniga yuksak darajadagi ulushlardan bo‘lib qo‘shildi.

20
25



Qori-Niyoziy insoniylikning yuksak fazilatlaridan bo'lmish samimiylikni va mantiq tushunchalarini alohida e'tirof etadi. Chindan ham samimiylik insonning oliyjanob fazilatlaridan biridir. Samimiylik rostgo'ylik bilan uzviy bog'langan. Rostgo'y insongina samimiy bo'la oladi. Bu ikki tushuncha o'zaro uzviyligi bilan jamiyat ravnaqida, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi.

Qori-Niyoziy joylarda ta'lim jarayonini kuzatishlarida o'qitishning muvaffaqiyati, asosan o'qitilayotgan fanga o'quvchilarni qiziqtirish ekanligiga ishonch hosil qilgan. "Men aminmanki, – deydi u, – har bir normal qobiliyat egasi bo'lgan kishi ham bu kabi natijaga ega bo'lishi mumkin. Buning asosiy sharti vaqtdan to'g'ri foydalanish yoki boshqacha qilib aytganda, kundalik sistemali ijodiy mehnatdan iborat".



SIDDIQ RAJABOV

Yana bir pedagog olim Siddiq Rajabovning ilmiy-pedagogik faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, olimning ijod yo'li hozirgi davr pedagogikasi uchun munosib hissalaridan bo'lib qo'shilganining guvohi bo'lamiz.

Siddiq Rajabov Respublikamizda xalq maorifining rivojlanishiga pedagogika ilmining taraqqiyotiga, ixtisosli pedagogik kadrlar tayyorlash ishiga katta hissa qo'shgan, dastlabki pedagogika fanlari nomzodi, dastlabki pedagogika fanlari doktori, professor va dastlabki akademikdir



Siddiq Rajabovning 1958- yilgacha bo'lgan davrdagi ijodiy faoliyati g'oyatda unumli va sermahsul bo'ldi. Olimning bu davrda bir qator ilmiy-ommabop ishlari nashr qilindi. Quyida ularni eng asosiylari keltirib o'tilgan:

“Pedagogikani
o‘qitishni
hozirgi zamon
fani talabi
darajasiga
ko‘taraylik”

“O‘qituvchi-
lar kasbi
haqida”


“O‘zbekistonda 25
yil ichida
maktablarning
taraqqiyotiga doir”

“Pedagogika
oliy o‘quv
yurtlari
talabalarining
ilmiy-tadqiqot
ishlari haqida”

Siddiq Rajabovning ilmiy faoliyatini o'rganar ekanmiz, olim asosan, O'zbekistonda xalq maorifining rivojiga, didaktik masalalarga, pedagogik kadrlar tayyorlashga, chet el ilg'or pedagogik fikrlarni targ'ib etishga, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berganligini guvohi bo'lamiz.

Bu haqdagi g'oyalarini "Pedagogika fani taraqqiyotining ba'zi masalalari", "O'zbekistonda sovet maktabi tarixiga doir" monografiya va risolalarida, "Oliy maktab didaktikasining masalalari", "Zamon va tarbiya", "O'zbekistonda pedagogika fanlarining taraqqiyoti istiqbollari" kabi tadqiqotlarida aks ettirdi. "Oliy maktab didaktikasining ba'zi masalalari" ilmiy maqolasida u, yillar davomidagi izlanishlari, kuzatishlariga suyanan holda, ta'lim jarayonida: ilmiylik, uzviylik, nazariyaning amaliyot bilan birligi, o'qitishda onglilik, shaxs va jamoa birligi, aniqlik va faraz birligi, bilimni puxta o'zlashtirish printsiplariga amal qilish g'oyalarini ilgari surdi. Siddiq Rajabov o'z ilmiy faoliyatida xorijiy mamlakat buyuk pedagoglaridan Komenskiy, Ushinskiy, L.Tolstoyning pedagogik qarashlarini tadqiq qilib, ilg'or fikrlaridan respublikada ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishni tavsiya etdi.

Siddiq Rajabovning ilmiy maktabi



M. Ochilov (1962)

F.Abdullayev (1962)

K.Hoshimov (1964)

M.Ahmedova (1965)

T.Mo‘minjonov (1966)

A.Tyulenov (1966)

D.Urumbayev (1966)

S.Fayzulina (1966)

Pedagogika tarixidan birinchilardan bo'lib 1973-yilda K.N.Konstantinov va M.F.Shabayevalar "Pedagogika tarixi" fanining dasturini tuzishdi.



Pedagogika tarixini o'rganish, uni rivojlantirish uchun o'zbek milliy ta'lim-tarbiyasi, an'analari, tarixini o'rgatadigan, milliyligimizni o'zida aks ettiradigan darslik yaratishni professorlar K.Hoshimov va S.Ochillar taklif qilib chiqdilar va boshlab berdilar. Shundan so'ng, professor Asqar Zunnunov rahbarligida "O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar" o'quv qo'llanmasi yaratildi.



ASQAR ZUNNUNOV

	Adabiyot
Gʻafur	oʻqitish
Gʻulomning	metodikasining
hayoti va ijodini	rivojlanishi
oʻrgangan.	haqida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Yana bir zabardast pedagog olimlardan biri Asqar Zunnunov boʻlib, u oʻzbek pedagogikasida oʻchmas iz qoldirdi.

Asqar Zunnunov 1915-yilda Toshkent shahrida savdogar oilasida tavallud topdi. Yoshlik yillaridanoq ilm-maʼrifatga qiziqishi juda yuqori boʻlib, oʻqish va izlanishga barvaqt kirishdi.

1923–1929-yillarda eski usul va yangi turdagi boshlangʻich maktabda taʼlim oldi, 1929–1933-yilda 9 yillik bilim yurtida oʻqidi, 1938–1943-yillarda Toshkent kechki davlat pedagogika institutining filologiya fakultetida tahsil oldi. U 1952-yilda K.D.Ushinskiy nomidagi Respublika oʻqituvchilar malakasini oshirish instituti qoshida tashkil qilingan nomzodlik kursida oʻqib, 1955-yilda tugalladi. 1961-yilda „Gʻafur Gʻulomning hayoti va ijodini 10-sinfda oʻrganish“ mavzuida nomzodlik, 1975-yilda „Oʻzbekiston SSR maktablarida adabiyot oʻqitish metodikasining rivojlanishi“ mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.



Asqar Zunnunovning fikricha, “Boqiy olamning o‘zi ibrat manbaidir. Hayotdagi yaxshilik va yomonlik, poklik, ibrat namunasidir. Inson yaxshilik odamga quvonch baxsh etishini ko‘rib, yaxshilik qilishga intiladi, yomonlik odamni badnom qilishini ko‘rib undan yiroqlashishga harakat qiladi. Ibrat shu jihatlari bilan inson tarbiyasida aloxida o‘rinda turadi”.

Maktabda ta’lim-tarbiyaga rahbarlik qiluvchi shaxs, bilimdonlik, pedagogik mahorat sohibi, madaniy-ma’naviy jihatdan yetuk, pedagogika va psixologiya bo‘yicha bilim va bu sohadagi yangiliklardan xabardor bo‘lishi kerak.

Asqar Zunnunovning ta’kidlashicha, tarbiyada bilim va tajribaga ega bo‘lgan, milliy qadriyatlardan xabardor o‘qituvchi bolalarni bilimli, go‘zal xulqli qilib yetishtirishi shubhasizdir. Ammo ularning bolalarga beradigan tarbiyasi tarbiyaning asosiy zamini bo‘lgan oila, tarbiya ilmidan xabardor ota-ona, ayniqsa, iffat, sharm-hayo, or-nomus, sabr durdonalaridan ziynatlangan, baxt-saodat mujassam bo‘lgan ona tarbiyasi darajasida bo‘lmaydi



Olimning hayotiy tajribalari, kuzatishlari, ilmiy izlanishlari asosida ta’lim tarbiyaga rahbarlik qiluvchi shaxsning o‘z faoliyati, amaliy ishlari bilan jamoaga ibrat bo‘lishi, ilg‘or tajribalarni hayotga tadbiq etib borishi, maktab ta’lim-tarbiyasining oila ta’lim-tarbiyasi bilan uzvuylikda bo‘lishi, Vatanni sharaflash haqidagi fikrlari pedagogika rivojiga qo‘shilgan ulkan hissasidir.

Malla Ochilov

Yana bir yetuk olim, pedagog Malla Ochilov 1931-yilda Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani Xo'jaxayron qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topgan. U 1968-yilda Toshkent davlat universitetida pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'lib, shu yili Moskva davlat pedagogika institutida "O'qituvchi odobining shakllanishi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.



Malla Ochilov 1958–1990- yillarda samarali faoliyat olib borib, boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi kasbi, axloqiy tarbiya, tarbiyaviy ishlar, talabalarning iliy tadqiqot ishlariga taalluqli 20 dan ortiq risolalar yozdi. Olim ijodini sermahsul davom ettirgan holda, 1991–2001-yillarda pedagogikadan kurs ishi, pedagogika dasturi, ta'lim standarti, konsepsiyasi o'quv qo'llanmalarini yaratish bilan bir qatorda, “Yangi pedagogik texnologiyalar”, “O'qituvchi odobi”, “Muallim kasb me'mori” nomlaridagi yirik asarlarini keng jamoatchilik e'tiboriga havola etdi. Malla Ochilov tarjimonchilik sohasida unumli faoliyat olib borib, buyuk olim Y.A.Komenskiyning “Buyuk didaktika” asarini o'zbek tiliga mohirona o'girdi.

Malla Ochilov o'qituvchilik kasbi fazilatlari haqida fikr yuritar ekan, insonning komil inson bo'lishi uchun avvalo, jamiyat taraqqiyoti yo'lida hizmat qilmog'i, insoniyatning buyuk orzu-istaklarini ro'yobga chiqarish yo'lida zarur bo'lsa o'z hayotini ham qurbon qilishga tayyor turmog'i haqida yozadi.

Jahon ilmiy hamjamiyatining e'tirof etilishicha, O'zbekiston qadimdan madaniyat va sivilizatsiya barpo etuvchi zamindir. Darhaqiqat, o'rta asrlarda O'zbekiston hududida vujudga kelgan ilmiy-ma'naviy yutuqlar Yevropadagi ilm-u fanga asos bo'ldi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy kabi ulug' mutafakkirlarimizning beqiyos ilmiy-falsafiy risolalari dunyoviy bilimlarni rivojlantirish va tizimlashtirish bilan bir qatorda, nafaqat o'z zamonasi, balki, keyingi yuz yilliklarga tegishli umumjahon tamaddunining yuksalishiga asos soldi.

Anashu yuksalish negizida hozirgi davrda ham yangi pedagogik qarashlar dunyoga keldi.

Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish maqsadida quyidagilar pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

4

tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash.

2

pedagogik ta'lim sohasining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o'quv-me'yoriy va ta'lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish;


1

pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish;

3

sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish;

Tarix o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaruvchi omil deb qabul qilinsa, pedagogika tarixi insoniyatning asrlar davomida orttirgan tarbiya va madaniyatga oid tajribalarini bugungi davr talabiga moslab yetkazuvchi ijtimoiy hodisadir. Bugungi kunda pedagogika tarixini o'rganish – qadimiy yozuvlar, bitiklar, qo'lyozma manbalar, xalq og'zaki ijodi, muqaddas diniy kitoblar, Sharq mutafakkirlarining merosi, pandnomalar, jahon mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, zamonaviy pedagogika fani darg'alarining konseptual g'oyalari, ta'lim-tarbiya va maorif ishini yuksaltirishga doir hukumat qarorlari, milliy istiqlol g'oyalariga asoslangan milliy mafkuramiz materiallari, O'zbekiston Prezidentining ta'lim-tarbiyaga oid asarlariga asoslanadi.





Tarbiya biz uchun yo hayot,
yo mamot, yo najot yo falokat, yo
saodot, yo xalokat masalasidir!

Ta'lim jarayonidagi har bir
yangilik, har bir qarash muhim
hisoblanib, pedagogikada alohida
ahamiyat kasb etadi.



Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi.

Davlatimiz rahbari e'tirof etganidek, xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda Yangi O'zbekiston yangidan-yangi yuksak marralarga erishishiga, insoniyat baxt-saodati, farovonligi va ravnaqi uchun o'rnak bo'lishiga shubha yo'q. Zero, bugungi kun talabi ham mana shundadir.